

TADQIQOT AKSELERATORI REZIDENTLIK DASTURI

Ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun 12 oylik o'quv dasturi

ARIZA TOPSHIRISH MUDDATI	NATIJARAR E'LON QILINISHI	DASTUR BOSHLANISHI
14-aprel 2026-yil	30-aprel 2026-yilgacha	12-may 2026-yil

DASTUR HAQIDA

Ijtimoiy siyosat laboratoriyasi (ISLAB) J-PAL Europe (Abdul Latif Jameel Poverty Action Lab) bilan hamkorlikda Tadqiqot akseleratori Rezidentlik dasturini e'lon qiladi.

Bu 12 oylik dastur ilmiy faoliyatining boshlang'ich nuqtasida turgan tadqiqotchilar va PhD talabalariga ta'sirni baholash (impact evaluation), ijtimoiy siyosat va rivojlanish iqtisodiyoti sohasidagi ko'nikmalarini mustahkamlash uchun mo'ljallangan. Dastur faqat individual loyihalarni rivojlantirishga emas, balki mamlakatimizda siyosatga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ekotizimini kengaytirishga va ta'sirni baholash sohasida uzoq muddatli yetakchilikni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

DASTURDA QATNASHISHNING AFZALLIKLARI

Trening va ta'lim MIT DEDP MicroMasters dasturidan 2 ta bepul onlayn kurs va bir marotaba yuzma-yuz trening	ISLAB rezidenti bo'lish ISLAB tadqiqotchilari bilan yaqin hamkorlik, treninglar va real ijtimoiy siyosat muhitida amaliy tajriba	Rasmiy e'tirof Ijtimoiy siyosat laboratoriyasining rasmiy veb-saytida Tadqiqot akseleratori rezidenti sifatida e'lon qilinish
Tadqiqot qilishda ko'mak J-PAL va ISLAB tadqiqotchilaridan loyiha dizaynidan tortib nashr etishgacha mentorlik	Ilg'or ekspertlar bilan muloqot Mahalliy va xalqaro olimlar bilan seminar va ilmiy almashinuvlarda qatnashish imkoniyati	Moliyalaviy ko'mak Istiqbolli loyihalar uchun donor tashkilotlar orqali kelajakda moliyalaviy yordam olish imkoniyati

O'QUV DASTURI

Ishtirokchilar quyidagi tizimli trening dasturini o'taydi:

- Bir marotaba bo'lib o'tadigan yuzma-yuz trening
- [MIT DEDP MicroMasters](#) dasturidan 2 ta onlayn kurs (o'qituvchi assistenti hamrohligida)

Kurs	Nomi	Davri
1-kurs	Tasodifiy baholash tadqiqotlarini loyihalash va o'tkazish	May — Avgust 2026
2-kurs	Ijtimoiy fanlar uchun ma'lumotlar tahlili	Sentabr — Dekabr 2026

Haftalik rezidentlik yuklamasi: 12–14 soat.

Trening to'liq ISLAB va J-PAL tomonidan moliyalashtiriladi va ishtirokchilar uchun bepul.

TALABLAR

Asosiy mezonlar

- O'zbekistonda (ustuvorlik beriladi) yoki Markaziy Osiyoda istiqomat qilish. O'zbekistonga oid tadqiqot loyihalari bilan chet elda o'qiyotgan yoki ishlaydigan O'zbekiston fuqarolari ham murojaat qilishlari mumkin.
- Bakalavr darajasiga ega bo'lish (minimal talab). Iqtisodiyot, Davlat siyosati, Ijtimoiy himoya, Statistika yoki shunga o'xshash miqdoriy ijtimoiy fanlarda doktorantura talabalari va magistratura bitiruvchilariga ustuvorlik beriladi.
- 12 oylik rezidentlik davomida faol ishtirok etishga tayyor bo'lish. Dastur asosan masofaviy formatda bo'lib, ISLAB ofisidagi ish joyidan ixtiyoriy foydalanish imkoniyati mavjud.

Ko'nikmalar va tajriba

- Ilmiy-tadqiqot muhitida tajriba orttirish.
- Ta'sirni baholash (impact evaluation), ijtimoiy himoya, rivojlanish iqtisodiyoti, ta'lim, sog'liqni saqlash yoki tegishli sohalarga qiziqish.
- Kuchli analitik va miqdoriy ko'nikmalar.
- Statistik dasturlashda ish ko'nikmasi: R, Stata yoki Python.
- Ingliz tilida o'qish va yozish bo'yicha malaka.

ARIZA TOPSHIRISH TARTIBI

Nomzodlar quyidagi hujjatlarni topshirishlari kerak:

- To'ldirilgan ariza shakli; shaklning bir qismi sifatida CV yuklash talab etiladi.
- Quyidagilarni o'z ichiga oladigan tadqiqot loyihasi (maksimal 1 200 so'z) lozim:
 - Tadqiqot savoli
 - Siyosiy ahamiyati
 - Mavjud adabiyotlar konteksti
 - Taklif etilayotgan metodologiya
 - Loyiha qaysi bosqichda ekanligi
 - Mentorlik kutilayotgan yo'nalish

⚠ Muhim eslatma

Barcha hujjatlar 14-aprel 2026-yilgacha topshirilishi lozim. Hujjatlar mazkur muddatgacha ko'rib chiqiladi va nomzodlar tanlab olinadi. Shu sababli erta hujjat topshirgan nomzodlar ustuvorlikka ega bo'ladi. Tanlangan nomzodlar J-PAL xodimlari bilan tadqiqot loyihasi muhokamasi uchun qo'ng'iroqqa taklif etilishi mumkin.

TELEGRAM	@islab_uz
ARIZA SHAKLI	forms.gle/gKdYXfZWcdmoYT6TA
RASMIY SAYT	sites.google.com/povertyactionlab.org/research-accelerator-residency

TEZ-TEZ SO'RALADIGAN SAVOLLAR (FAQ)

Trening pullimi yoki bepulmi?

Trening to'liq ISLAB va J-PAL tomonidan moliyalashtiriladi. Ishtirokchilardan hech qanday to'lov talab etilmaydi.

MITx imtihon bali sertifikatda ko'rsatiladimi?

Yo'q. MITx diplomida ham, ISLAB va J-PAL tomonidan beriladigan yakuniy sertifikatda ham MITx imtihon bali ko'rsatilmaydi.

Trening tadbirlaridan birida qatnasha olmasam nima bo'ladi?

Tadbirlarda ishtirok etish o'quv materialidan to'liq foydalanish uchun muhim hisoblanadi. Jiddiy sabab bo'lgan taqdirda koordinatsiya guruhi bilan oldindan bog'lanish talab qilinadi.

Dastur uchun bir haftada qancha vaqt talab etadi?

1-onlayn kurs may oyidan avgust oyigacha, 2-kurs esa sentabrdan dekabrga qadar davom etadi. Kutilayotgan haftalik rezidentlik yuklamasi 12–14 soatni tashkil etadi.

Tanlov qanday amalga oshiriladi?

Barcha hujjatlar 14-aprel 2026-yilgacha topshirilishi lozim. Hujjatlar mazkur muddatgacha ko'rib chiqiladi va nomzodlar tanlab olinadi. Shu sababli erta hujjat topshirgan nomzodlar ustuvorlikka ega bo'ladi. Tanlangan nomzodlar J-PAL xodimlari bilan tadqiqot loyihasi muhokamasi uchun qo'ng'iroqqa taklif etilishi mumkin. Natijalar 30 aprel 2026 gacha e'lon qilinadi.

Ushbu dastur haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchun
rasmiiy veb-saytimizga (socialpolicylab.uz) kiring.